Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

Maqola nomi: Patriarxal labirintda hamkorlik va nizo

Asl maqola nomi: Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

Muallif: Nancy Folbre

Manba: Daedalus, Winter 2020, Vol. 149, No. 1, Women & Equality (Winter 2020), pp. 198-212

Nashriyot: The MIT Press on behalf of American Academy of Arts & Sciences

Doimiy havola:
https://www.jstor.org/stable/10.2307/48563041?seq=1&cid=pdfreference#references_tab_contents

---

Mazkur maqola professor Nancy Folbre ruxsati bilan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O‘zbekistonda gender zo‘ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o‘zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

Tarjimon: Nodira Ibrohimova

Tarjima sanasi: 2025-yil

Tarjima Shveytsariyaning O‘zbekistondagi Elchixonasi ko‘magida tayyorlangan.

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin o‘qish, ta’limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko‘rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko‘rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

PATRIARXAL LABIRINTDA HAMKORLIK VA NIZO

Nancy Folbre

AQSH, Massachusets Amxerst universiteti

Mazkur maqola jinsga asoslangan jamoaviy kuch tuzilmalarini tasavvur qilishning yangi yo‘lini taklif etadi. Muallif ayollarning erkaklar bilan hamkorlik natijasida erishadigan yutuqlarini taqsimlash masalasida muzokara olib borish imkoniyatlarini shakllantirishda ijtimoiy institutlarning o‘rnini ta’kidlaydi. Shu asosda u muzokara kuchini interdissiplinar tushunish zarurligini asoslaydi va undagi noqis ma’lumot, samarasiz natijalarga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, jins, yosh va seksuallikka asoslangan jamoaviy kuch tuzilmalari bilan irq, etnik mansublik, fuqarolik yoki sinfiy ijtimoiy belgilangan guruh a’zoligi o‘lchovlari asosidagi tuzilmalar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni ochib beradi. Reproduktiv mehnatning ahamiyatini tan olish esa interseksional siyosiy iqtisodni rivojlantirish vazifasini ilgari surishga yordam beradi.

“Hokimiyat tuzilmasi” degan tushunchani olaylik. Odatda ijtimoiy fanlarda bu atama odamlarning hayoti va ishiga ta’sir qiladigan iyerarxik tizimlar, turli muassasalar yoki iqtisodiy tartiblarni anglatadi. Bunday tizimlar ko‘pincha piramida shaklida tasvirlanadi: pastida ko‘pchilik, yuqorida esa ozchilik joylashadi. Lekin chizmada oddiy ko‘rinadigan bu piramidalar aslida ichkaridan qanday ishlashi yoki bir-biriga qanday ta’sir qilishi haqida ko‘p narsa aytilmagan bo‘ladi. Shu sababli odamlar unga qanday yo‘l topishi yoki ko‘tarilishi murakkab masalaga aylanadi. Men esa bu jarayonni yanada ravshanroq ko‘rsatish uchun uch o‘lchovli piramida timsolini taklif qilaman. Uning ichida yuqoriga chiqish uchun yo‘llar mavjud, ammo hamma uchun emas - kimlargadir imkoniyat ochiladi, boshqalar uchun esa katta to‘siqlar bo‘ladi.

Masalan, patriarxal labirint deganda gender, yosh yoki jinsiylikka qarab odamlar duch keladigan to‘siqlarni tushunish mumkin. Shuning uchun psixologlar Elis Iglay va Linda Karli ayollar hokimiyat sari intilsa, yo‘llari doim qiyinroq bo‘lishini ta’kidlaydi[1]. Bu kabi tuzilmalar turli davr va joylarda har xil ko‘rinish oladi, vaqt

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
o‘tishi bilan o‘zgarishi yoki qayta qurilishi ham mumkin. Ular boshqa tengsizlik tizimlari bilan aralashib ketib, odamlar yashaydigan murakkab muhitni yaratadi. Bu muhitda ham ayollar, ham erkaklar o‘z o‘rnini saqlashga, yuqoriga chiqishga yoki tizimni o‘z foydasiga o‘zgartirishga urinadi. Ammo bunday harakatlar ko‘pincha murakkablik va kutilmagan vaziyatlar sababli sekinlashadi. Chunki bu “labirint”ning o‘zi o‘zgaruvchan, ittifoqlar tez-tez almashinib turadi, bu esa jamoaviy harakatlarni ham qiyinlashtiradi.

Ushbu manzara ayollarning tanlovlarini cheklaydigan va ularning to‘siqlarni yengib o‘tish imkoniyatlarini kamaytiruvchi patriarxal institutlarning yo‘llarini ko‘rsatadi. Bu yerda “muloqot qilish, kelishib olish” degan ma’noni ifodalovchi *“negotiate”* so‘zi muhim ahamiyatga ega. Chunki kuch va iqtisodiy xavfsizlikka erishish qandaydir sport musobaqasiga o‘xshamaydi - natijalar ko‘p jihatdan shaxsiy mahorat bilan belgilanadigan, masalan, loydan o‘tib olish yoki arqonga chiqish kabi mashq emas. Aksincha, bu jamoaviy o‘yin. Unda shaxsiy mahorat ham ahamiyatli, lekin jamoa yoki guruhga a’zolik insonning tortishuvdagi kuchini belgilaydi: ya’ni qoidalar va natijalarga ta’sir o‘tkazish qobiliyatini. Labirint ichida yuqoriga yo‘l olish boshqalar bilan hamkorlik qilishni talab qiladi, ammo bu hamkorlikdan keladigan yutuqlar ko‘pincha teng taqsimlanmaydi. Ayollarga, erkaklarga nisbatan, inson salohiyatini yaratish va saqlab turishga oid mas’uliyatlar ko‘proq yuklanadi. Bu esa ularning tortishuvdagi kuchini kamaytiradi. Jinsiy tyenglikka erishish yo‘lida qaramlarga g‘amxo‘rlik qilish xarajatlarini adolatliroq taqsimlaydigan yangi institutlarni rivojlantirish zarur.

Ushbu nazariy mulohaza so‘nggi asr mobaynida ayollarning huquqiy sohadagi jahon miqyosidagi yutuqlari patriarxal institusional tuzilmalarni zaiflatgan bo‘lsa-da, ularni tubdan yo‘qota olmaganini ta’kidlaydi. Institutlar tahlilini tortishuv (kelishuv) mantig‘i bilan uyg‘unlashtirib, men har qanday guruh, agar hamkorlikdan tushadigan foydaning katta ulushini o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘lsa, o‘z mavqeini mustahkamlaydigan ijtimoiy institutlar yarata olishini tushuntiraman. Jinsiy kuch muvozanati turli omillar sababli o‘zgarishi mumkin, jumladan iqtisodiy rivojlanish va islohotlar orqali mehnat taqsimotida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar orqali ham. Biroq patriarxal hokimiyat tuzilmalari irq, fuqarolik va tabaqaga asoslangan boshqa murakkab iyerarxiyalar bilan kesishib, ular bilan birlashgan holda yanada mustahkamlanadi.

Inson huquqlaridagi asimmetriya iqtisodiy tenglikka olib boruvchi yo‘ldagi asimmetriyani ham anglatadi. Keyingi yillardagi feministik diskurs inson huquqlari tushunchasini kengaytirib, uni gender, oila va jinsiy sohalarda ham tatbiq etish zarurligini muvaffaqiyatli tarzda ilgari surdi[2]. Bu oson ish emas va alohida e’tirofga arziydi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) hamda Jahon banki kabi ko‘p tomonlama institutlar nashr etgan tadqiqotlar liberal teng imkoniyatlar

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
tamoyillariga zid bo‘lgan qonunlar va davlat siyosatlarini ochib berdi[3]. Ilmiy sohada esa sosiolog Goran Terborn patriarxal huquq tizimlarining jahon miqyosida qay tarzda orqaga chekinayotganini batafsil hujjatlashtirgan (albatta, ayrim hududlar hali deyarli o‘zgarishsiz qolganini e’tirof etgan holda)[4].

Biroq hatto AQSH va boshqa farovon mamlakatlar nuqtai nazaridan qaralganda ham, bunday “yutuqlarni nishonlash” hali barvaqtdek tuyuladi. Ayollar uzoq vaqtdan beri erkaklar bilan deyarli teng huquqiy imkoniyatlardan foydalanib kelayotgan bo‘lsalar-da, ular iqtisodiy va siyosiy jihatdan hanuz kamsitilgan holatda qolmoqda. Empirik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ayollar erkaklarga nisbatan ancha kam daromad oladilar. Buning asosiy sababi ularning bolalar va boshqa boqimandalarga g‘amxo‘rlik qilish mas’uliyatini ko‘proq o‘z zimmalariga olishidir. Bu esa ularga nisbatan “onalik jarimalari” deb ataluvchi iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi[5]. Shuningdek, ayollar asosan parvarish va g‘amxo‘rlik xizmatlariga oid kasb va sohalarda ishlashda davom etmoqdalar va bu ularda “parvarish jarimalari”ni keltirib chiqaradi[6].

Ba’zi tadqiqotlardan shu xulosa chiqishi mumkinki, go‘yo ayollar erkaklarga nisbatan boshqacha tanlovlarga ega: ular daromaddan voz kechib, evaziga g‘amxo‘rlikdan olinadigan ma’naviy qoniqishni afzal ko‘radilar[7]. Biroq ko‘plab feminist olimlar bunga nisbatan ko‘proq tuzilmaviy yondashuvni ilgari suradilar. Ular ta’kidlaydiki, shaxsiy tanlovlar ijtimoiy me’yorlar va iqtisodiy sharoitlar ta’sirida shakllanadi; bu sharoitlarning o‘zi esa siyosiy va iqtisodiy hokimiyat tomonidan belgilanadi[8]. Ayrimlar bu holatni patriarxat bilan izohlaydilar, boshqalar kapitalizm yoki patriarxal kapitalizmga urg‘u berishadi; yana boshqalar esa kesishuvchi hokimiyatning murakkab shakllariga ishora qiladilar[9]. Mening fikrimcha, ushbu yondashuvlarni samarali uyg‘unlashtirish mumkin. Buning uchun jamoaviy manfaatlarni ham aks ettiruvchi, ham rivojlantiruvchi aniq institusional tuzilmalarga ko‘proq e’tibor qaratish zarur[10].

Ijtimoiy institutlar haqidagi keng qamrovli adabiyot ko‘plab muhim, ammo tarqoq xulosalarni taqdim etadi. Institutlarni turli asoslar bo‘yicha tasniflash mumkin: maydonlarga qarab (masalan, davlat, bozor va oila), funksiyalarga qarab (ishlab chiqarish, taqsimot va ijtimoiylashuv), ijtimoiy fan sohalariga qarab (siyosiy, iqtisodiy va madaniy - tegishlicha huquqiy boshqaruv, resurslarni taqsimlash va madaniy me’yorlar). Ushbu tasniflarning har biri muayyan maqsadlarda foyda berishi mumkin.

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
Biroq men jamoaviy to‘qnashuvga urg‘u bergan holda, institusional tuzilmalarni ularning taqsimot oqibatlari nuqtai nazaridan tasniflayman: ya’ni hamkorlikdan keladigan foydaga kirish imkoniyatlarini jamiyat belgilab qo‘ygan guruhiy mansublik (jins, jinsiy yo‘nalish, yosh, tabaqa, irq, etnik kelib chiqish yoki fuqarolik) asosida noteng shaklda belgilovchi institutlar majmuasi sifatida. Shu tariqa, men jinsiy tengsizlikni yagona institutlar majmuasiga, sinfiy yoki irqiy tengsizlikni esa boshqa bir institutlar majmuasiga to‘liq bog‘lab qo‘ymayman. Aksincha, ko‘p turdagi institutlar yakka holda ham, birgalikda ham turli guruh tengsizliklarini kuchaytirishi mumkinligini e’tirof etaman.

Qarindoshlik kuchini va iqtisodiy xavfsizlikni oshirish yo‘lidagi ham to‘siqlar, ham qisqa yo‘llar muayyan guruh a’zolarini qanday tarzda saralab, yo‘naltirib turayotganiga qarab ta’riflanishi mumkin. Albatta, ular bir vaqtning o‘zida bir nechta guruhlarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu boisdan eng muhim savollar quyidagicha: kim foyda ko‘ryapti, qanday yo‘l bilan va qay darajada? Bu yondashuv asosiy iqtisodiy nazariyadan farq qiladi. Chunki asosiy iqtisodiy nazariya ijtimoiy institutlarni, yakka shaxslarning markazlashmagan tanlovlari (ya’ni bozor) orqali oson hal etib bo‘lmaydigan muvofiqlashtirish muammolariga samarali yechim sifatida talqin qiladi[11]. Bu esa taqsimotga oid to‘qnashuvni ikkinchi darajali masalaga aylantiradi[12]. Samaradorlik konsepsiyasi esa shaffoflikni nazarda tutadi - yoki kamida tepaga olib chiqadigan eng yaxshi yo‘lni ko‘rish mumkin bo‘lgan darajada yoritilgan “koridorlar” mavjudligini.

Ayrim siyosatshunoslar institutlarga nisbatan yanada nozikroq izoh taklif qiladilar va taqsimotga oid to‘qnashuv hamda siyosiy kuchning ta’siriga ishora qiladilar[13]. Biroq bu yerda ham rasional tanlov qilish va xarajat-manfaat tahlili oliy darajada mavjud deb hisoblanadi. Ommaviy ravishda qo‘llaniladigan o‘yin nazariyasi modellari esa “yutuq matrisalari” yoki ehtimoliy “chekinish pozisiyalari”ni oldindan belgilab qo‘yadi, go‘yoki barcha o‘yinchi o‘z harakatlarining oqibatlarini aniq ko‘ra oladi. Ammo labirintda vaziyat boshqacha: o‘yinchilar mutlaqo rasional bo‘lishi mumkin, biroq shunga qaramay, noto‘g‘ri burilishlar qilishga juda moyil bo‘ladilar. Mumkin bo‘lgan yo‘llar chalkash, rasmiy ko‘rsatmalar esa adashtiruvchi bo‘lishi mumkin. Natijada paydo bo‘ladigan noaniqlik eng yaxshi natijaga olib bormasa ham, xatarni minimallashtirish va oldingi presedentlarga moslashish tendensiyasini kuchaytiradi.

Iyerarxik tuzilmalarni shakllantiradigan ijtimoiy institutlar hamkorlikdan keladigan foydaning miqdori va taqsimoti haqidagi ko‘p qatlamli kelishuv jarayonlarini ifoda etadi. Bunday tuzilmalarni ularning taqsimot natijalariga, ya’ni eng ko‘p kim foyda ko‘rayotganiga qarab nomlash, patriarxal institutlar haqidagi boyib borayotgan adabiyotni patriarxat, kapitalizm, irqchilik va millatchilik kabi tuzilmaviy tushunchalarga bog‘laydi. Biroq bu yondashuv ushbu tuzilmalar mustaqil yoki

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
avtonom degan qarashga qarshi chiqadi. Aksincha, ularni ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantirilgan jamoaviy hokimiyat tuzilmalari sifatida ta'riflaydi: ya'ni tog' zanjiriga o'xshash iyerarxik labirintlar majmuasi sifatida.

Iqtisodiy zinapoyadan ko'tarilish yoki murakkab yo'lni bosib o'tish harakatlari faqat siyosiy huquqlar bilan cheklanib qolmaydi. Ularga ijtimoiy majburiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, boqiluvchilarni moddiy ta'minlash va bevosita parvarish qilish yukini ko'targanlar ko'pincha bu vazifadan xoli bo'lganlar bilan raqobatlasha olmaydilar. Gender tengligi va gender farqini tan olish o'rtasidagi ziddiyat, ya'ni huquqlar va majburiyatlar o'rtasidagi ziddiyat AQSHdagi feministik faoliyat tarixiga chuqur singib ketgan. Bu esa liberal va sosialistik feminizmning bir-birini to'ldiruvchi, ammo o'ziga xos bo'lgan ustuvorliklarini aks ettiradi.

Ayollar huquqlariga qaratilgan huquqiy cheklovlar tarixda aniq va ravshan iz qoldirgan, bu esa boshqa turdagi institutlar haqidagi tadqiqotlarga nisbatan dalil jihatidan ustunlik beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy majburiyatlarning taqsimoti ham muhim ahamiyatga ega. Hatto ayollar erkaklarga nisbatan boshqalarga g'amxo'rlik qilish uchun ko'proq vaqt va kuch sarflashni ixtiyoriy tanlagan taqdirda ham, ular bu tanlovning iqtisodiy oqibatlarini o'zlari belgilay olmaydilar. Patriarxal hamda kapitalistik institusional tuzilmalar esa odamlarga, ayniqsa erkaklarga g'amxo'rlik qilish bilan shug'ullanuvchilar hisobidan bepul foyda olish imkonini beradi.

Kapitalistik ish beruvchilar bu faoliyatlar qanchalik ijtimoiy yoki umumiy manfaatga ega bo'lmasin foyda keltirmaydigan faoliyatlarni rag'batlantirmaydilar. Kapitalizmning jamoaviy hokimiyat tuzilmalari ichida boshqalarga nisbatan befoyda faoliyatga kamroq vaqt va kuch sarflaydiganlar daromad va boylikka ko'proq ega bo'ladilar. Bunday asimmetriya ayollar uchun erkaklar bilan hamkorlikni iqtisodiy jihatdan ahamiyatli qiladi, hatto bu hamkorlik ularni moddiy qo'llab-quvvatlashdan mahrum etish tahdidi ostida qoldirsa ham. Iqtisodiy bog'liqlik ayollarning uyda, ish joyida va siyosiy maydonda g'amxo'rlik mas'uliyatlarini taqsimlash bo'yicha tortishuv olib borish qobiliyatini susaytiradi. Shu bilan birga, ularning patriarxal me'yorlarga qarshi chiqish yoki o'zgartirish imkoniyatini ham cheklaydi.

Patriarxal institusional tuzilmalar ayollarni hokimiyatdan chetlatib kelgan bo'lsa-da, ular erkaklarga ham jiddiy ijtimoiy majburiyatlarni yuklagan. Ko'plab an'anaviy patriarxal jamiyatlarda kuchli jamoa sanksiyalari va norasmiy qoidalar (doimam qonun emas) erkakdan u tufayli homilador bo'lgan ayolni ta'minlash va farzandlarining iqtisodiy mas'uliyatini zimmasiga olishni talab qilgan. Shuningdek, keksa ota-onalarni, jumladan beva ayollarni qo'llab-quvvatlash ham ko'pincha samarali tarzda ta'minlangan. Biroq ayollar yangi huquqlarni qo'lga kiritgan sari, erkaklar ko'pincha o'z majburiyatlarining ayrim qismini boshqalar zimmasiga

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
yuklamoqda. Masalan, AQSHda “majburiy nikoh” qoidasining buzilishi ayollar tomonidan boshqariladigan oilalar ulushining o‘sishiga hissa qo‘shdi[14].

Ayollarning haq to‘lanadigan ishga kirish imkoniyatlari kengayishi ko‘pincha ularning oilaga g‘amxo‘rlik uchun haq olish huquqlari - bolalarining otasidan, katta bo‘lgan farzandlaridan va kengroq ma’noda davlatdan - yetarlicha aniq belgilanmasligi bilan yo‘g‘rilgan. Oila barqarorligining pasayishi ayollarga shaxsiy tanlov imkoniyatlarini ko‘proq bersa-da, ishonchli qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini qisqartiradi. Turmush qurgan juftliklarda daromad va bo‘sh vaqt taqsimoti ko‘p hollarda erkaklarga ko‘proq naf keltiradi, ammo birgalikda yashash odatda ma’lum turmush darajasida umumiylikni kafolatlaydi. Nikohsizlik, ajrashish, ayri yashash va ish qidirib uzoq masofalarga ko‘chish esa oilaviy daromadni birlashtirish imkoniyatlarini kamaytiradi, bu esa ayniqsa, yosh bolali onalar uchun og‘ir iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.

Bozordagi daromadga ega bo‘lish ba’zan oila ichidagi resurslar taqsimoti hisobidan amalga oshadi. Bu turdagi ichki ko‘chirmalar esa haligacha yetarli o‘lchanmaydi va oila farovonligini baholashning standart ko‘rsatkichlarida deyarli inobatga olinmaydi. Shuning uchun patriarxal qonunlarning qaysilari barham topgan yoki topishi lozimligiga oid ro‘yxat bilan birga, boqimandalarga g‘amxo‘rlik qilish va inson salohiyatini rivojlantirish xarajatlarini teng taqsimlashni rag‘batlantiradigan yangi qonunlar ro‘yxati ham taqdim etilishi kerak.

“Labirint” metaforasi shaxs va guruhning faolligi uchun keng imkoniyat qoldiradi: hamma turli nuqtalardan kirishadi, ayrimlar boshqalarga nisbatan qulayroq holatda start oladi. Shu bilan birga, harakat, mahorat va jamoaviy ishlash ularning xavf-xatardan qochish va mukofotga yetib borish ehtimoliga ta’sir qiladi. Har kim o‘z yo‘lini ochishga yoki boshqalar uchun yo‘lni yopishga harakat qilishi mumkin. Biroq shaxsiy va jamoaviy sub’yektlar oldida turgan tanlovlar to‘plami iqtisodiy modellarda tasvirlangan “utilitar maksimalizatsiya”dan ancha murakkabdir. Chunki bu modellar go‘yoki to‘liq ma’lumot, tashqi yo‘naltirilgan qiziqishlar va mutlaq shaxsiy manfaat mavjudligini nazarda tutadi.

Individual agentlar avvalo jamiyat tomonidan muayyan guruhlarga biriktiriladi. Bolalik chog‘ida ular o‘z jinsi, yoshi, ijtimoiy qatlamga mansubligi, irqi va etnik kelib chiqishi, fuqaroligi va boshqa ko‘plab jamoaviy farqlarni tanlash imkoniga ega emas. Bu esa ular shakllantiradigan qiziqishlar, rivojlantiradigan qobiliyatlar hamda ularga taqdim etiladigan imkoniyatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Vaqt o‘tishi bilan individual agentlar o‘z-o‘zini anglash va ongli tanlov qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydilar. Ular uchun eng muhim qarorlardan biri turli guruhlarga bo‘lgan sadoqat darajasini belgilashdir. Bu sadoqat bir tomondan ichki qoniqish manbai bo‘lishi mumkin, ikkinchi tomondan esa ularning kelajakdagi iqtisodiy muvaffaqiyatini belgilab beradi. Biroq bunday qarorlarning oqibati doim noma’lum

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
qoladi, chunki ular boshqa odamlarning bir vaqtning o‘zida qabul qiladigan qarorlari ta’sirida ham shakllanadi.

Boshqacha aytgancha, individual agentlarning oqilona qaror qabul qilish imkoniyati nafaqat institusional tuzilmalar qo‘yadigan cheklovlar bilan, balki mustaqil sub’yektlar bilan kelishilgan va bajarilishi kafolatlangan qarorlarni muvofiqlashtirish yoki ular bilan barqaror ittifoqlar tuzish qiyinligi bilan ham chegaralanadi. Aynan mana shu qiyinchilik institusional “labirintlar”ning o‘zgarishga chidamli bo‘lishini izohlab beradi: hatto eng kam ta’minlangan qatnashchilar ham, agar yagona alternativa yanada xavfli, noaniq va tuzilmasiz muhitdan iborat bo‘lsa, ulardan ma’lum bir naf olishadi. Shu bilan birga, imkoniyatsizlikdan chiqib ketish tahdidi kam ta’minlangan qatlamlar tomonidan amalga oshirilsa ham hamon muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning hamkorligi orqali manfaatdor bo‘lganlar harakatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

“Hamkorlikdagi nizo” tushunchasi Jon Roulzning «Adolat nazariyasi» asarida asosiy o‘rin tutadi va iqtisodchi Amartya Sen hamda boshqalar tomonidan oilalardagi jinsiy tengsizlikka oid tortishuvlarni tahlil qilishda samarali qo‘llangan[15]. Alohida guruhlar yoki shaxslar bir-biri bilan hamkorlik qilish orqali ko‘p narsaga erishishi mumkin, ammo shunga qaramay, bu hamkorlikdan kelib chiqqan foydani taqsimlash masalasida tortishishadi. Falsafachi Charlz Mills ta’kidlaganidek, “hamkorlikdagi nizo” atamasi, masalan, qullik kabi institutlarga nisbatan qo‘llanilganda, juda ojiz va bezarar tuyuladi[16]. Ketrin Makkinnon esa “rozilik” tushunchasiga bergan chuqur tanqidida ko‘rsatib o‘tganidek, iyerarxik institusional tuzilmalar natijada “majburiy hamkorlik” deb aniqroq ifodalanadigan holatni keltirib chiqarishi mumkin[17]. Demak, biz “erkinlik” deb ataydigan narsa, asosan, tobelikka tushmasdan boshqa hayotiy imkoniyatlar mavjudligiga bog‘liq.

Iqtisodiyot sohasida esa erkaklar va ayollar o‘rtasidagi oilaviy tortishuvlarga e’tibor qaratilmoqda va bu yo‘nalish, deyarli, uy xo‘jaligini yagona qaror qabul qiluvchi sub’yekt sifatida ko‘radigan mikroiqtisodiy modellarni siqib chiqardi. Biroq aksariyat tortishuv modellari hali ham jamiyatni o‘zgarmas muhit sifatida qabul qiladigan va o‘sha muhitda faoliyat yurituvchi alohida individlarga yo‘naltirilgan. Ular jamoaviy harakat orqali siyosiy, madaniy va iqtisodiy institutlarni kuchaytirish yoki ularga qarshi chiqish imkoniyatlarini inkor etadi. Shuning uchun tortishuvga nisbatan kengroq yondashuv, ya’ni unda jamoaviylik va birgalikda harakat qilish omillari ham hisobga olinishi iyerarxik tuzilmalar qanday shakllanishi va ularning qanday shakllantirilishiga yordam beradi. Shuningdek, tortishuvning qorong‘u va labirintsimon muhitda kechishi ham alohida o‘rganilishga arziydi.

Hamkorlik turli shakllarda bo‘lishi mumkin: kelishuvga erishishdan tortib bozor almashinuvida ishtirok etishga yoki buyruqqa bo‘ysunishgacha. Hamkorlikdan

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
olinadigan foydaning taqsimlanishi har bir shaxsning “qo‘shgan qiymati” bilan emas, balki uning ehtimoliy orqaga chekinish holati bilan belgilanadi, ya’ni hamkorlik buzilsa, unga nimadir bo‘lsa. Jismoniy zo‘ravonlik tahdidining ishonarli ko‘rinishi bu ehtimoliy imkoniyatlarni zaiflashtiradi. Shuningdek, mustaqil daromad manbai yo‘qligi yoki boqimandalarga qilingan iqtisodiy yordamni to‘xtatish ham xuddi shunday ta’sir ko‘rsatadi.

Xo‘jalikda tortishuv modellarining dastlabki tadqiqotchilaridan biri bo‘lgan Marjori MakElroy e’tirof etganidek, ijtimoiy institutlar yoki uning ta’biricha “xonadondan tashqari muhit parametrlari” xo‘jalik a’zolarining ehtimoliy orqaga chekinish holatiga ta’sir qilishi mumkin.[18] Masalan, ajrim qonuni, davlat yordamiga ega bo‘lish imkoniyati va madaniy me’yorlar turmush o‘rtoqlar uchun nikohni buzish oqibatlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. MakElroyning bu kuzatuviga tayana turib, men boshqa atamani taklif qilganman: “jinsga xos muhit parametrlari”[19]

Empirik tadqiqotlar ijtimoiy institutlar bilan mikroiqtisodiy natijalar o‘rtasidagi muhim bog‘lanishni tasdiqlaydi. Masalan, iqtisodchilar Shelli Lundberg va Robert Pollak Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan siyosiy yangilik - bolalar nafaqasi otalarga emas, balki onalarga yo‘naltirilishi xonadon xarajatlarining taqsimlanishiga ta’sir qilganini ko‘rsatishgan.[20] Miqdoriy emas, balki sifatiy yondashuvni qo‘llab, iqtisodchi Bina Agarval rivojlangan mamlakatlarda madaniy me’yorlarning xonadonda tortishuv natijalariga ta’sirini ishonarli tarzda tushuntirgan.[21]

Huquqiy institutlar esa xonadonda tortishuvga ayniqsa, aniq ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, XX asrda AQSH qonunchiligi erkakka xotini va farzandlarining kundalik ehtiyojlarini qondirish majburiyatini yuklagan, lekin oilaviy daromadni ular bilan teng taqsimlashni talab etmagan.[22] Bugungi kunda esa AQSH oila huquqi turmush o‘rtoqlarni bir-birini o‘zaro qo‘llab-quvvatlash majburiyatiga undaydi, ammo daromadni teng taqsimlashni shart qilib qo‘ymaydi (shunga qaramay, ayrim shtatlarda “community property” qonunlari ajrim vaqtida nikoh davrida orttirilgan boylikni teng taqsimlashni talab qiladi). Ko‘plab mamlakatlarda erkaklar tarixan xotinini jismoniy jazolash huquqiga ega bo‘lishgan, faqat og‘ir va doimiy jarohat yetkazmasalar bas edi. Bu qoidalar isloh qilinganidan keyin ham XX asrning oxirigacha nikoh ichidagi maishiy zo‘ravonlikdan himoya ko‘pincha samarasiz bo‘lib qoldi.

Ayrim erkaklarning ba’zi ayollarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik qilish tahdidi barcha ayollar ustidan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi va bu ularni zo‘ravonlik qilmaydigan erkaklarni qadrlashga (hamda ularga bog‘lanib qolishga) undaydi. Xo‘sh, xuddi shuningdek, Amerika janubida ko‘plab qullarga nisbatan qilingan kuchli jismoniy zo‘ravonlik sohiblari uchun qanchalik qimmatga tushmasin, kamroq zo‘ravonlik qilgan qul egalari uchun yashirin tahdid yaratgan. Bu esa ularga o‘zlarini go‘yo mehribon sifatida ko‘rsatish imkoniyatini bergan ijtimoiy tashqi ta’sir turi hisoblangan. Har ikki holatda ham hokimiyatga ega guruh a’zolari o‘zlari hech

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
qachon amalga oshirmaydigan zo‘ravonlikka ko‘z yumish uchun manfaatga ega bo‘lishgan.

Tortishuv ko‘pincha yanada nozik shakllarda kechishi mumkin. “Zahira pozisiyalar” faqatgina chiqib ketish imkoniyatlari bilan cheklanib qolmaydi. O‘zini adolatsiz munosabatga uchrayotgandek his qilgan shaxslarda ayniqsa, ishdan bo‘yin tovlash yoki sabotaj bilan shug‘ullanish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu esa hamkorlikdan olinadigan samarani pasaytiradi va eng ko‘p foyda ko‘radiganlar uchun qimmatga tushadi. Xonadondagi tortishuv kontekstida bu strategiyani “ko‘mirday kuygan non” deb atash mumkin. Kapitalistik korxonalarda “samaradorlik maoshi” haqidagi adabiyot ish beruvchilar nima uchun bozordan yuqoriroq maosh berishdan manfaatdor bo‘lishini tushuntiradi: chunki natijada ishdan ayrilish xavfi ishchilarni, nazorat qilish qiyin yoki qimmatga tushadigan holatlarda ham ko‘proq mehnat qilishga undaydi.[23] Xuddi shunday, erkak ayolga hamkorlikdan olinadigan foydaning undan ham ko‘proq ulushini taklif qilishi mumkin, chunki bu uning oiladagi sa’y-harakatini yoki sadoqatini oshiradi. Boshqalarga mehr-shafqat va muhabbat ham tortishuv jarayonini yumshatadi. Iqtisodchilar “sovg‘a almashinuvi” deb atagan holat (ayrim ish beruvchilar bilan ishchilari o‘rtasida kuzatiladigan hodisa) xonadonda kapitalistik korxonalarga nisbatan ancha ko‘p sodir bo‘ladi.[24] Biroq unga har doim ham ishonib bo‘lmaydi. Patriarxal qoidalar asosida boshqariladigan xonadonlarda ayollarning tengsizlikka moyilligi qisman hissiy bog‘lanishlarning nozik tabiatidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy institutlarning uy-xo‘jalikdagi muzokaralarga ta’siri, ularning aks yo‘nalishdagi ta’siridan ko‘ra yaxshiroq o‘rganilgan, chunki ikkinchisi aniq belgilash uchun ancha qiyin. Shu bilan birga mikro va makro darajalar orasidagi bog‘liqlik aniq: agar patriarxal institutlar uyda erkaklar va ayollarning nisbiy muzokara pozisiyalariga ta’sir qilsa, unda erkaklar va ayollar ushbu institutlarni o‘z manfaati yo‘lida o‘zgartirish uchun jamoaviy harakatlarga kirishishga rag‘bat topadilar.

Bu yondashuv neoklassik ta’sir ostidagi “rent izlash” tushunchasini ham, Marks nazariyasidagi sinfiy kurashni ham kattaroq chegara ichiga oladi[25]. Guruh muvaffaqiyati ko‘pincha institusional kuchni mustahkamlaydi, bu esa o‘z navbatida guruhning hamkorlikdan oladigan ulushini oshirishi mumkin. Boshidan kuchli “zahira yo‘li”ga ega bo‘lgan shaxs yoki guruh ulushning katta qismini qo‘lga kiritishi va keyinchalik bu ulushni o‘z “zahira yo‘li”ni yaxshilashga yoki boshqalarning “zahira yo‘li”ni zaiflashtirishga sarf qilishi mumkin. Biror guruh iyerarxik institusional tuzilmaning yuqori qismiga chiqqach, ular o‘z ustunligini saqlab qoladigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy institutlarni rivojlantirish uchun mavjud resurslardan foydalanishi mumkin.

Bu dinamika samarasiz va noodil ijtimoiy institutlarning saqlanib qolishiga hissa qo‘shadigan kuch va samaradorlik o‘rtasidagi dialektika haqidagi tushunchani izohlaydi. Ba’zan “ijtimoiy pirog bo‘lagi” (ibora: jamiyatdagi boylik va resurslar)

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
hajmini oshirishi mumkin bo‘lgan yangiliklar, agar ular ta’sirli guruhlarning ulushini qisqartirsa, to‘sib qo‘yiladi. Chunki kichik pirogning katta bo‘lagi, kattaroq pirogning kichik bo‘lagidan afzal ko‘rilishi mumkin.

Kapitalistik taraqqiyot ba’zan ayollarga uydan tashqarida ishlab, ish haqi olish imkoniyatini beradi. Bu imkoniyat ularning uy-xo‘jaligi uchun bozordan tashqari mehnatidan ko‘ra ko‘proq foyda keltirishi mumkin. Ammo erlar bunday imkoniyatdan foydalanishiga qarshilik qilishi mumkin, chunki umumiy foydaning oshishiga qaramay, ularning umumiy ulushi qisqarishi mumkin.26 Shu kabi mantiq AQSHda qul egalari qullarning ta’lim olishini taqiqlaganini ham izohlaydi, garchi ta’lim qulchilikka asoslangan iqtisodiyot samaradorligini oshirishi mumkin edi. Har ikki misolda ham jamoaviy kuch tuzilmasi samaradorlikni oshirish imkoniyatini berishi mumkin bo‘lgan institusional o‘zgarishlarga to‘siq bo‘ladi.

Individual va jamoaviy tortishuvga urg‘u berish, bu har doim rasional tanlovlar, ya’ni tizimli xarajat-foyda tahlili asosida qilingan qarorlarni anglatmaydi. Iyerarxik labirintlarda agentlar birgalikda o‘tirib taklif va qarshi takliflar qiladigan katta davra stollari mavjud emas. Shunga qaramasdan, hamkorlikning ko‘p shakllari ma’lum darajada yashirin tortishuv ta’sirida bo‘ladi. Mashhur biznes-trening konsultanti reklama qilganidek: “Siz haqli bo‘lganingizni emas, muzokara qilib olganingizni qo‘lga kiritasiz.”[27] Qo‘rqitish va va’da berish, soxta harakatlar va aldamchilik, ishontirish va majburlash, ittifoq va murosa - bularning barchasi ko‘pincha yashirin shaklda sodir bo‘ladi. Hatto bozor almashinuvi ham ko‘pincha tortishuvga maydon bo‘ladi[28]. Jarayonning o‘zi natijalar kabi muhim bo‘lishi mumkin: ayrim odamlar boshqalarga nisbatan qattiqroq tortishuv olib borishga o‘rgatilgan. Natijalar esa deyarli hech qachon mutlaq aniq emas, ular ko‘pincha noto‘g‘ri idrok etilishi yoki umuman noma’lum bo‘lishi mumkin (bunga harbiy strategiyadagi “urush tumani” iborasi qo‘llanadi (ibora: urush maydonidagi xaos, noaniqlik va to‘liq axborot yetishmasligi), u jinsiy munosabatlardagi “tuman”ga ham taalluqlidir).

Ochiq-oshkor tortishuv nafaqat qimmat va vaqt talab qiladi, balki adovat va salbiy munosabat ham keltirib chiqarishi mumkin. Iqtisodchilar odatda turmush o‘rtoqlar haqda shunday deb hisoblashadi: agar bitta tomon uchun foyda keltiradigan harakat ikkinchi tomonga hech qanday zarar keltirmasa, er-xotin bir-birini to‘sishga urinmaydi[29]. Lekin haqiqiy hayotda g‘azab va hasad ko‘pincha aqlni yengib chiqadi, javob zarbasini keltirib chiqaradi va ikki taraf ham avvalgidan yomon ahvolda qoladi. Ayrim erkaklar o‘z juftlarini o‘ldirib, keyin o‘zlari ham jonlariga qasd qilishadi.

Ijtimoiy me’yorlar esa kelishmovchilikning qimmat turlarini yumshatish uchun yashirin qoidalarni va ba’zan ochiq yechimlarni taklif qilib, hamkorlikni yengillashtirishi mumkin. Masalan, “Pirogni qanday qilib teng bo‘lish mumkin?” “Sen kes, men tanlayman.” Janjaldan qochmoqchimisiz? “Qani, tanga tashlaymiz.” Agar er-xotin ishlar taqsimoti haqida kelisha olmasa, ular shunchaki ijtimoiy kutilmalarga suyanadi[30]. Lekin ijtimoiy kutilmalar ko‘pincha avvaldan ustun

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
mavqega ega bo‘lganlarni qo‘llab-quvvatlaydi[31]. Masalan, “risoladagidek ayollik” me’yorlari gender tengsizligini mustahkamlashi mumkin; xuddi shunday tarzda vatando‘stlik me’yorlari boshqa mamlakatlarga tajovuzni oqlashi mumkin, irqiy g‘urur oq tanli ustunlikni qo‘zg‘atishi mumkin va elitar qadriyatlar sinfiy tafovutlarni qonuniylashtirishi mumkin.

Altruistik me’yorlar ko‘pincha insonning shaxsiy xohishlari va qarashlariga ta’sir qiladigan tarzda ichkilashtiriladi. Agar tortishuvchi tomonlardan biri boshqasiga (yoki uchinchi shaxslarga) ko‘proq ahamiyat bersa, natija ko‘proq egoist yoki talabchan ishtirokchi foydasiga og‘adi. Buni “yaxshi yigitlar (va yaxshi qizlar) oxirida yutqazadi” degan ibora ham ko‘rsatib turadi. Sinfiy tuzumdagi “yashirin jarohatlar” umumlashmasi kabi ayollarning tobelik holati ularning shaxsiy va guruhlik agentligini (huquq va harakat imkoniyatlarini) zaiflashtiradi[32]. Heteronormativ qadriyatlar va gomofobik munosabatlar esa “normadan tashqari” deb belgilab qo‘yilgan shaxslarning ishonchini susaytiradi. Zulmning o‘zi ham ko‘pincha inson ongiga singib ketadi.[33]

Hamkorlik jarayonlari, ya’ni ayrim ishtirokchilar o‘z qo‘shgan hissasini aniqlab yoki talab qilib bo‘lmaydigan holatlar, iqtisodiy hayotning ko‘p jihatlarini ifodalaydi. Lekin bunday jarayonlar ayniqsa reproduksiya (bu yerda inson qobiliyatlarini yaratish va saqlash deb ta’riflanadi) va ijtimoiy reproduksiya (ijtimoiy guruhlarni yaratish va saqlash) jarayonlarida muhim o‘rin tutadi. Ayollar erkaklarga nisbatan bu vazifalarga ko‘proq vaqt va kuch sarflagani uchun institusional tortishuvlarning gender tengsizligini tahlil qilishda o‘ta ahamiyatli ahvolga ega bo‘ladi.

Reproduksiyaning o‘ziga xos talablari unga ixtisoslashgan shaxslarning tortishuvdagi kuchini bevosita belgilaydi. Qaramlarni (masalan, bola, qariya, kasal) parvarish qilish mas’uliyati ko‘pincha ayollarni o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun erkaklarga bog‘liq qilib qo‘yadi. Shu bilan birga, parvarishga xos emosional bog‘lanish ayollarning “orqaga chekinish imkoniyatlari”ni ham zaiflashtiradi[34]. Natijada, reproduktiv vazifalarda ixtisoslashuvning pasayishi ayollarning huquq va imkoniyatlarini kuchaytirishga hissa qo‘shdi. Juda uzoq davom etgan ikki tarixiy tendensiya - tug‘ilish darajasining pasayishi va jismoniy kuchdan ko‘ra aqliy qobiliyatlarni afzal ko‘radigan texnologik o‘zgarishlar ayollarning jamoaviy tortishuv kuchini oshirdi. Shunga qaramay, gender tengligiga institusional qarshilik hali ham kuchli. Chunki tenglikni ta’minlash degani, boshqalarni parvarish qilish xarajatlarini qayta taqsimlashni talab qiladi.

Reproduksiya inson qobiliyatlarini yaratish va saqlab turish orqali ulkan iqtisodiy qiymat hosil qiladi. Bolalarni parvarish qilish ba’zan investisiya sifatida qaraladi, og‘ir nogironlar va qariyalarni parvarish qilish esa iste’mol deb ataladi, chunki bu kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi ehtimoli past. Biroq standart kapital hisobiga ko‘ra, investisiya degani amortizatsiya xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda, bemor va qariyalarga moliyaviy yordam va bevosita parvarish ham

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
bolalarga qilingan parvarish kabi ijtimoiy investisiya turiga kirishi kerak. Bu jarayonning muhim "sug'urta" vazifasi ham bor: mehnatga layoqatli ishchilar kelajakda o'zlari ham boqimanda bo'lishlari mumkinligini oldindan bilib, boshqalarni qo'llab-quvvatlashga ko'proq tayyor bo'ladilar. Biroq parvarish qiluvchilar yaratgan ijtimoiy qiymatdan o'z ulushini to'liq olishga deyarli erisha olmaydilar. Ularning mehnat haqi to'lansin yoki to'lanmasin, uni standartlashtirish qiyin.

Parvarish ishlari ko'pincha oila a'zolari va boshqa g'amxo'rlar bilan hamkorlikni talab qiladi. Shuningdek, parvarish qilinuvchilarning hamkorligi ham zarur: bolalar ota-onasini tinglashi, bemorlar shifokor ko'rsatmalarini bajarishi, talabalar uy vazifalarini qilishlari shart. Parvarish xizmatining sifati ko'pincha parvarish oluvchining farovonligiga bo'lgan chin e'tiborga bog'liq. Mana shu xususiyatlar parvarish qiluvchilarning tortishuv kuchini cheklaydi. Erkaklar ham, ayollar ham "sevgi mahbuslari"ga aylanishlari mumkin, lekin madaniy me'yorlar erkaklar uchun bu holatdan chiqib ketishni osonroq qiladi: otalar bolalarini e'tiborsiz qoldirishi yoki tashlab ketishi mumkin, chunki ular onalarning o'rnini to'ldirishlariga ishonchli. Shuningdek, katta yoshli o'g'il bolalar qariya ota-onalariga to'g'ridan-to'g'ri parvarish ko'rsatish ehtimoli faqat opasi yo'q bo'lsa ortib ketadi. Gender me'yorlari ko'pincha ayollarni boshqa ayollarga - o'z onasi yoki qiziga parvarishda katta yordam uchun bog'liq qiladi. Bu esa ularda o'zgarishdan qo'rqishni paydo qiladi: agar ayollar ham erkaklar kabi "beparvo" bo'lib qolsa, oilalarning ahvoli nima bo'ladi?

Kapitalistik taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq ko'plab yo'nalishlar ayollarning vaqtini va kuchini oilalardagi haq to'lanmaydigan parvarish ishlaridan haq to'lanadigan mehnatga yo'naltirishga undadi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha tug'ish ko'rsatkichi har bir ayolga o'rtacha ikki yoki uch boladan to'g'ri kelmoqda, ko'plab boy mamlakatlarda, jumladan AQSHda esa aholi sonini avlod almashinuvi uchun zarur bo'lgan 2,1 bola darajasidan ham pastga tushib ketgan[35]. AQSHda farzand ko'rmaslik holatlari ham ortib bormoqda, ayniqsa oliy ma'lumotli ayollar orasida. O'rtacha hisobda, ayollar o'z umr yo'llarida yosh bolalarga qarashga ajratiladigan vaqtini kamaytirdilar, bu esa ularning mehnat bozorida daromad topish imkoniyatlarini oshirdi va institusional o'zgarishlar uchun safarbarlik qobiliyatini mustahkamladi.

Iqtisodiy o'zgarishlar talab tomondan ham ayollarning rollarida siljishlarga olib keldi. AQSHda ham, boshqa boy mamlakatlarda ham xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi yangi mehnat bozori imkoniyatlarini yaratdi. Bu sohada aql va bilim jismoniy kuchdan ko'ra ko'proq qadrlanadi. Ilgari ishlab chiqarish sohasiga nisbatan "kam samarali" deb baholangan xizmat sohasi ish o'rinlari hozir biznes siklidagi ko'tarilish va pasayishlarga kamroq ta'sirchan, shuningdek, ularni chet elga ko'chirish yoki autsorsing qilish qiyin. Ayrim iqtisodchilarning ta'kidlashicha, ayollarda o'ziga xos shaxslararo munosabat o'rnatish qobiliyati yoki "insonlar bilan

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
ishlash mahorati" mavjud bo‘lib, bugungi mehnat bozori tendensiyalari sharoitida katta qiymatga ega va yuqori baholanmoqda[36].

Bu optimistik qarash ayrim jiddiy qarama-qarshi tendensiyalarni inobatga olmaydi. AQSHda har bir ayolga to‘g‘ri keladigan farzandlar sonining kamayishi, ona uchun farzand tarbiyasi bilan bog‘liq iqtisodiy xarajatlarning ortishi bilan hamohang kechmoqda. Bu xarajatlar yuqori daromadli qatlamda "farzand sifati"ga katta e’tibor berish va "intensiv onalik" madaniy bosimi sabab ko‘paymoqda. Daromad past qatlamda esa bolalarning tobora kattaroq qismi faqat onalar tomonidan ta’minlanmoqda. Bundan tashqari, ayollarning yuqori haq to‘lanadigan kasbiy va boshqaruv lavozimlariga yetib borishi ulardan talab qilinadigan vaqt sabab cheklanmoqda: uzoq ish haftalari, kechasi va dam olish kunlari ishlashga moslashish, uydan uzoq safarlarga tayyor turish kabi shartlar. Mehnat bozorining past qatlamlarida esa ona bo‘lgan ayollar teskari muammoga duch kelmoqda: qisqa muddatli smenali ishlar va oldindan ma’lum bo‘lmagan soatlar ularni yetarli bola parvarishi imkoniyatlaridan ham, yetarli daromaddan ham mahrum etmoqda. Qolaversa, qariyalarni parvarish qilishga bo‘lgan ortib borayotgan talab bu bosimlarni yanada kuchaytirmoqda.

Yana bir jihat shundaki, ishlaydigan ayollar AQSH bozor iqtisodiyotida asosan parvarish sohasida jamlangan: sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy xizmatlar kabi sohalarda. Bu ish o‘rinlari ta’lim darajasiga qaramasdan xususiy biznes xizmatlari va davlat boshqaruvi sohalariga nisbatan ancha kam haq to‘laydi[37]. Boshqaruv va marketing bilan bog‘liq ijtimoiy ko‘nikmalar xususiy sektorda daromadli bo‘lsa, odamlarga parvarish va yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq ko‘nikmalar ayniqsa, ularning to‘lash qobiliyati past bo‘lsa, mehnat bozorida kam baholanadi. Shu bilan birga, AQSHda ayollar davlat sektori ishchilarining katta qismini tashkil etadi. Shu bois byudjetdagi tejamkorlik siyosatlari ularga erkaklarga qaraganda ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy qayta iste’mol (ya’ni avlod davomiyligi va uning xarajatlari) bilan bog‘liq xarajatlarni taqsimlash masalasi asosan farovonlik davlati doirasidagi jamoaviy muzokaralarda hal qilinmoqda. Ayollarning parvarish va g‘amxo‘rlik vazifalaridagi roli ularni erkaklarga nisbatan ijtimoiy xarajatlarni ko‘proq qadrlashga olib keladi va bu AQSHda gender bo‘yicha ovoz berish afzalliklari orasidagi tobora ortib borayotgan tafovutni izohlaydi. Agar ijtimoiy qayta ishlab chiqarish xarajatlarini o‘z zimmasidan soqit qilishga undaydigan boshqa umumiy manfaatlar ta’siri bo‘lmaganida, ayollar yanada birlashgan va kuchli siyosiy guruh sifatida namoyon bo‘lar edilar. Shu yerda boshqa murakkab institusional tuzilmalar ham ishga tushadi.

Har bir inson bir nechta ijtimoiy belgilangan guruhlarga mansub hisoblanadi va unga ochiq yo‘llar ko‘pincha o‘zaro kesishuvchi yoki ustma-ust tushuvchi jamoaviy shaxsiyatlar orqali shakllanadi. Avlod davomiyligi va uning institusional tarzda tashkil qilinishi vaqt o‘tishi bilan o‘zini saqlab qolishni istagan barcha guruhlarga

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
ta’sir qiladi va uning ta’siri gender, yosh yoki jinsiylik manfaatlari chegarasidan ancha kengroqdir. Zamonaviy farovonlik davlatlari sog‘liqni saqlash, ta’lim va sug‘urta xarajatlarining katta qismini ijtimoiylashtirgan, ammo odatda bunday nafaqalarga kirish imkonini immigratsiya nazorati orqali cheklaydi. Shu boisdan, AQSH kabi davlatlarda fuqarolik katta iqtisodiy imtiyozning belgisi hisoblanadi.

Fuqarolik, irq va etniklikka asoslangan guruhlarning jamoaviy manfaatlariga tahdid sifatida qabul qilinadigan holatlar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy manfaatlardan ko‘ra ijtimoiy qayta ishlab chiqarish bilan ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Ayova shtati vakili Stiven King (Respublikachilar partiyasi) shunday degan: “Biz o‘z sivilizatsiyamizni boshqa odamlarning bolalari bilan tiklay olmaymiz” va “Agar tug‘ilish ko‘rsatkichi avlodni almashtirish darajasidan pastga tushsa, biz yo‘qolib borayotgan sivilizatsiyamiz.”[38] Bunday shikoyatlar milliy, irqiy va etnik manfaatlar nomidan ayollarni reproduktiv huquqlardan mahrum qilish uchun asos sifatida ishlatiladi: ulardan “masixiy sivilizatsiya” yo‘lida o‘zlarining “manfaatparast” qarorlaridan voz kechishlari talab etiladi.

Enagalik xizmatiga kirish imkoniyatlaridagi tabaqaviy farqlar ham katta ahamiyatga ega. Katta shaharlarda yashovchi, yuqori ma’lumotli ayollar iqtisodiy jihatdan arzon ishchi kuchini ta’minlovchi ko‘p sonli kam maoshli immigrant ayollar xizmatidan foydalanib, bola parvarishi va qariyalarga qarash ishlarini nisbatan arzon narxda hal qila oladi. Past ma’lumotli ayollar esa, odatda, davlat tomonidan ta’minlanmagan enagalik xizmatlarini sotib olish imkoniga ega emas. Shuningdek, O‘rta-g‘arb Amerikasidagi ko‘pgina davlat universitetlari moliyaviy qiyinchiliklar sababli davlat tomonidan yetarli darajada mablag‘ ololmayotgani uchun to‘liq kontrakt to‘lay oladigan xorijiy talabalar qabulini ko‘paytirgan. Masalan, Illinoys universiteti (Urbana-Shampeyn kampusi)da 2008 yildan beri xitoylik talabalar soni besh baravarga oshgan[39]. Bunday qabullar shtat aholisi farzandlarining ta’lim xarajatlarini qisman subsidiyalaydi, biroq ular uchun ajratilgan o‘rinlarni ham qisqartiradi.

Patriarxal institusional tuzilmalar tushunchasi jamoaviy manfaatlar kesishadigan va o‘zaro chambarchas bog‘lanadigan yo‘llarda genderning ta’sirini kuzatish uchun yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qiladi. U yagona, umumiy to‘qnashuv o‘qiga emas, balki ko‘p qirrali, murakkab va kontekstga bog‘liq o‘zaro munosabatlarga e’tibor qaratdi. Shu orqali u an’anaviy iqtisodiy nazariyalarga nisbatan institusional xususiyatlarga xususan, qayta ishlab chiqarish va ijtimoiy qayta ishlab chiqarish tashkilotiga ko‘proq diqqat qaratishga undaydi. Bu tushuncha individual agentlik (shaxsiy iroda va harakat imkoniyati) uchun ham joy qoldiradi, biroq bir vaqtning o‘zida guruhlarni iqtisodiy kuchga aylantira oladigan altruizm va hamjihatlikning ta’sirini ham ko‘rsatadi.

Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan raqobatning uslubiy modeli rasional tanlov an’anasi va o‘yin nazariyasidan ilhomlanadi, ammo u natijalarni aniq ko‘rishning imkoni bo‘lmagan murakkab strategik muhitga urg‘u beradi. Bunday

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth
modellardan kelib chiqqan xulosalar eng avvalo tarixiy va taqqoslama tahlil uchun yo‘l-yo‘riq sifatida qaralishi kerak - o‘tmishning labirintlaridan chiqish yo‘llarini izlash uchun ishlatish mumkin bo‘lgan turli iplardan to‘qilgan g‘ildirak kabi.

MANBALAR

1. Alice H. Eagly and Linda L. Carli, “Women and the Labyrinth of Power,” Harvard Business Review, September 2007, https://hbr.org/2007/09/women-and-the-labyrinth-of -leadership. See also Alice H. Eagly and Linda L. Carli, Through the Labyrinth: The Truth about How Women Become Leaders (Cambridge, Mass.: Harvard Business Review Press, 2007).

2. The report by UN Women, Progress of the World’s Women 2019–2020: Families in a Changing World (New York: UN Women, 2019), represents a good example.

3. Johannes P. Jütting, Christian Morrisson, Jeff Dayton-Johnson, and Denis Drechsler, “Measuring Gender (In) Equality: The OECD Gender, Institutions and Development Data Base,” Journal of Human Development 9 (1) (2008): 65–86; and Sarah Iqbal, Asif Islam, Rita Ramalho, and Alena Sakhonchik, Unequal Before the Law: Measuring Legal Gender Disparities across the World (Washington, D.C: The World Bank, 2016).

4. Göran Therborn, Between Sex and Power: Family in the World 1900–2000 (New York: Routledge, 2004). See also Mala Htun and S. Laurel Weldon, The Logics of Gender Justice (New York: Cambridge University Press, 2018).

5. See, for instance, Rebecca Glauber, “Trends in the Motherhood Wage Penalty and Fatherhood Wage Premium for Low, Middle, and High Earners,” Demography 55 (5) (2018): 1663–1680.

6. Nancy Folbre and Kristin Smith, “Wages of Power vs. Wages of Care,” Feminist Economics (under review).

7. Catherine Hakim, Work-Lifestyle Choices in the 21st Century: Preference Theory (Oxford: Oxford University Press, 2001); and Claudia Goldin, “A Grand Gender Convergence: Its Last Chapter,” American Economic Review 104 (4) (2014): 1091–1119.

8. Torben Iverson and Frances Rosenbluth, Women, Work and Politics (New Haven, Conn.: Yale University Press, 2010).

9. For more discussion of this issue, see Nancy Folbre, The Rise and Decline of Patriarchal Systems (New York: Verso, 2020).

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

10. This approach builds on my earlier arguments regarding "structures of constraint" in Nancy Folbre, Who Pays for the Kids? (New York: Routledge, 1994).

11. Kenneth J. Arrow, "The Organization of Economic Activity: Issues Pertinent to the Choice of Market versus Nonmarket Allocation," in The Analysis and Evaluation of Public Expenditure: The PPB System (Washington, D.C.: Joint Economic Committee, United States Congress, 1969).

12. Oliver Williamson, "Markets and Hierarchies: Some Elementary Considerations," American Economic Review 63 (2) (1973): 316–325. This content downloaded from 192.166.229.13 on Mon, 25 Aug 2025 13:51:06 UTC All use subject to http 149 (1) Winter 2020 211 Nancy Folbre

13. Jack Knight, Institutions and Social Conflict (New York: Cambridge University Press, 1992); and Iverson and Rosenbluth, Women, Work and Politics.

14. George A. Akerlof, J. L. Yellen, and M. L. Katz, "An Analysis of Out-of-Wedlock Childbearing in the United States," Quarterly Journal of Economics 108 (447) (1996): 278–317.

15. John Rawls, A Theory of Justice (Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1971); and Amartya Sen, "Cooperation, Inequality, and the Family," Population and Development Review

16. (1989): 61–76. 16 Charles W. Mills, The Racial Contract (Ithaca, N.Y.: Cornell University Press, 1999).

17. Catharine MacKinnon, "Rape: On Coercion and Consent," in Writing on the Body: Female Embodiment and Feminist Theory, ed. Katie Conboy, Nadia Medina, and Sarah Stanbury (New York: Columbia University Press, 1997), 42–58.

18. Marjorie McElroy, "The Empirical Content of Nash-Bargained Household Behavior," Journal of Human Resources 25 (4) (1990): 559–583.

19. Nancy Folbre, "Gender Coalitions: Extrafamily Influences on Intrafamily Inequality," in Intrahousehold Resource Allocation in Developing Countries: Methods, Models and Policy, ed. Lawrence Haddad, John Hoddinott, and Harold Alderman (Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1998).

20. Shelly Lundberg and Robert A. Pollak, "Separate Spheres Bargaining and the Marriage Market," Journal of Political Economy 101 (6) (1993): 988–1010.

21. Bina Agarwal, "Bargaining and Gender Relations: Within and Beyond the Household," Feminist Economics 3 (1) (1997): 1–51.

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

22. Elissa Braunstein and Nancy Folbre, "To Honor or Obey: The Patriarch as Residual Claimant," Feminist Economics 7 (1) (2001): 25–54.

23. Samuel Bowles, "The Production Process in a Competitive Economy: Walrasian, Neo-Hobbesian, and Marxian Models," American Economic Review 75 (1) (1985): 16–36.

24. George A. Akerlof, "Labor Contracts as Partial Gift Exchange," Quarterly Journal of Economics 97 (4) (1982): 543–569.

25. On rent-seeking, see James M. Buchanan, Robert D. Tollison, and Gordon Tullock, Toward a Theory of the Rent-Seeking Society (College Station: Texas A&M University Press, 1980).

26. Braunstein and Folbre, "To Honor and Obey."

27. See KARRASS, http://www.karrass.com.

28. Samuel Bowles and Herbert Gintis, "The Revenge of Homo Economicus: Contested Exchange and the Revival of Political Economy," The Journal of Economic Perspectives 7 (1) (1993): 83–102.

29. Shelly Lundberg and Robert A. Pollak, "Efficiency in Marriage," Review of Economics of the Household 1 (3) (2003): 153–167.

30. Lundberg and Pollak, "Separate Spheres."

31. Pierre Bourdieu, Outline of a Theory of Practice (New York: Cambridge University Press, 1977). See also Edward Ross, Social Control: A Survey of the Foundations of Order (New York: The Macmillan Company, 1901). This content downloaded from 192.166.229.13 on Mon, 25 Aug 2025 13:51:06 UTC All use subject to http 212 Dædalus, the Journal of the American Academy of Arts & Sciences Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

32. Paula Ionide, The Emotional Politics of Racism (Stanford, Calif.: Stanford University Press, 2015); and Richard Sennett and Jonathan Cobb, The Hidden Injuries of Class (New York: W. W. Norton, 1993).

33. Paula England, "Sometimes the Social Becomes Personal," American Sociological Review 81 (1) (2016); and Paula England and Irene Browne, "Internalization and Constraint in Women's Subordination," Current Perspectives in Social Theory 12 (1992): 97–123.

34. Nancy Folbre, "Gender and the Care Penalty," in Oxford Handbook of Women in the Economy, ed. Laura Argys, Susan Averett, and Saul Hoffman (New York: Oxford University Press, 2018).

Folbre / Cooperation & Conflict in the Patriarchal Labyrinth

35. UN Women, The Progress of the Worlds Women 2019, chap. 1.

36. Lex Borghans, Bas Ter Weel, and Bruce A. Weinberg, "People Skills and the LaborMarket Outcomes of Underrepresented Groups," Industrial and Labor Relations Review 67 (2) (2014): 287–334.

37. Folbre and Smith, "Wages of Power."

38. Trip Gabriel, "A Timeline of Steve King's Racist Remarks and Divisive Actions," The New York Times, January 15, 2018, https://www.nytimes.com/2019/01/15/us/politics/ steve-king-offensive-quotes.html.

39. See Shen Lu, "Chinese Students Flock to the University of Illinois at Urbana-Champaign," Medill Reports Chicago, May 4, 2017, https://news.medill.northwestern.edu/ chicago/chinese-students-economic-impact-on-u-of-i/.

Nansy Folbre - Massachusets Amxerst universitetida iqtisodiyot fanlari professori. U Patrialxal tizimlarning yuksalishi va inqirozi (2020), Hirs, shahvat va gender: iqtisodiy g'oyalar tarixi (2009), Bolalar qadri: oila iqtisodiyotini qayta ko'rib chiqish (2008), Ko'rinmas yurak: iqtisod va oilaviy qadriyatlar (2001) kitoblarining muallifi.